

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY Gvardiya tizimida harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak bilan ta'minlash tizimining nazariy asoslari	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A.	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ.....	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
ОПТИК ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI.....	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	



O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI

Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Biznes boshqaruvi” kafedrasini tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0001-2258-1438

E-mail: ziyoda177@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, hududlar raqobatbardoshligini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash nafaqat ularning daromad manbalarini kengaytiradi, balki oilalar farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq joylarda faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada O'zbekistonning qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy omillar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot IMRAD metodologiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy yondashuv, tavsifiy statistik tahlil hamda ekonometrik baholash usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotning empirik bazasini Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan 365 nafar ayol tadbirkor o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, raqamli infratuzilma, mahalliy institutlarning faoliyati hamda hududiy iqtisodiy sharoitlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada hududlar kesimida qo'llab-quvvatlash choralarini differensial yondashuv (hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va ehtiyojlariga qarab tabaqalashtirilgan yondashuv) asosida tashkil etish, ayollar tadbirkorligi ekotizimini rivojlantirish hamda raqamli platformalar orqali davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, qishloq hududlari, institutsional rivojlanish, gender tengligi, kichik biznes, OLS regressiya, iqtisodiy o'sish, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. Today, the development of women's entrepreneurship is regarded as one of the important factors in accelerating economic growth, enhancing regional competitiveness, and reducing poverty. In particular, supporting women's entrepreneurial activities in rural areas not only expands their sources of income but also contributes to improving family well-being, creating new jobs, and ensuring the sustainable development of local economies. At the same time, it is important to expand women entrepreneurs' access to financial resources, develop infrastructure, increase the use of digital technologies, and improve institutional support mechanisms in rural areas.

This article provides a comprehensive analysis of the institutional, economic, and social factors affecting the development of women's entrepreneurship in rural areas of Uzbekistan. The study is structured according to the IMRAD methodology and employs systematic literature review, comparative analysis, descriptive statistical analysis, and econometric assessment methods. The empirical basis of the study consists of the results of a survey conducted among 365 women entrepreneurs operating in the Tashkent Region, as well as official statistical data.

The findings indicate that access to financial services, entrepreneurial knowledge and skills, digital infrastructure, the performance of local institutions, and territorial economic conditions have a significant impact on the development of women's entrepreneurship in rural areas. The article also develops scientific and practical recommendations for organizing support measures on the basis of a differentiated approach, that is, an approach tailored to the socioeconomic characteristics and needs of individual regions, developing the women's entrepreneurship ecosystem, and expanding access to public services through digital platforms.

Keywords: women's entrepreneurship, rural areas, institutional development, gender equality, small business, OLS regression, economic growth, digital economy.



Аннотация. В настоящее время развитие женского предпринимательства рассматривается как один из важных факторов ускорения экономического роста, повышения конкурентоспособности регионов и сокращения бедности. В частности, поддержка предпринимательской деятельности женщин в сельской местности не только способствует расширению источников их доходов, но и служит повышению благосостояния семей, созданию новых рабочих мест и устойчивому развитию местной экономики. Вместе с тем важное значение имеют расширение доступа женщин-предпринимателей к финансовым ресурсам, развитие инфраструктуры, повышение уровня использования цифровых технологий и совершенствование механизмов институциональной поддержки в сельской местности.

В статье комплексно анализируются институциональные, экономические и социальные факторы, влияющие на развитие женского предпринимательства в сельских районах Узбекистана. Исследование организовано на основе методологии IMRAD и включает методы систематического анализа научной литературы, сравнительного подхода, описательного статистического анализа и эконометрической оценки. Эмпирическую базу исследования составили результаты опроса 365 женщин-предпринимателей, осуществляющих деятельность в Ташкентской области, а также официальные статистические данные.

Полученные результаты показывают, что доступ к финансовым услугам, предпринимательские знания и навыки, цифровая инфраструктура, деятельность местных институтов и территориальные экономические условия оказывают значительное влияние на развитие женского предпринимательства в сельской местности. В статье также разработаны научно-практические рекомендации по организации мер поддержки на основе дифференцированного подхода, то есть с учётом социально-экономических особенностей и потребностей отдельных территорий, развитию экосистемы женского предпринимательства и расширению охвата государственными услугами посредством цифровых платформ.

Ключевые слова: женское предпринимательство, сельские районы, институциональное развитие, гендерное равенство, малый бизнес, OLS-регрессия, экономический рост, цифровая экономика.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida inklyuziv rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon banki¹, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)², BMTning UN Women tuzilmasi³ hamda Global Entrepreneurship Monitor (GEM)⁴ hisobotlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, oilalar daromadini oshirish va kambag'allikni kamaytirishning samarali vositasi sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonda ham xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni⁵, 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni⁶ hamda 2024-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son Qarori⁷ asosida ayollar tadbirkorligini moliyaviy, institutsional va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi.

Ushbu hujjatlar ayollar biznesini rivojlantirish, ularni kasb-hunarga o'qitish, imtiyozli kreditlar ajratish va tadbirkorlik infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mavjud ijobiy o'zgarishlar bilan birga, qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirishni talab etuvchi ayrim masalalar ham mavjud. Xususan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini

1 Jahon banki (World Bank). Women, Business and the Law 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.

2 Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Women's Entrepreneurship Development (WED) Programme. – Geneva: ILO, 2024. – URL: ilo.org/womens-entrepreneurship-development.

3 BMT Ayollar tashkiloti (UN Women). Women's Economic Empowerment Strategy. – New York: UN Women, 2024.

4 Global Entrepreneurship Monitor (GEM). 2023/24 Women's Entrepreneurship Report: Reshaping Economies and Communities. – London: GEM, 2024.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6831827>

kengaytirish, garov ta'minoti bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda ijtimoiy omillarni hisobga olish tadbirkorlik faoliyatining yanada kengayishiga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rov natijalari ham ushbu muammolarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini faqat moliyalashtirish masalasi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq institutlar va qo'llab-quvvatlash tizimi doirasida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuv davlat organlari, moliyaviy institutlar, mahalla, ta'lim tizimi, raqamli infratuzilma va mahalliy biznes muhiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholash imkonini beradi. Aynan ushbu omillar uyg'unlashgandagina ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoit shakllanadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional omillar IMRAD metodologiyasi asosida kompleks baholanadi hamda Toshkent viloyati misolida olingan empirik natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosatini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiyot, menejment va gender tadqiqotlari doirasida eng faol o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligining rivojlanish darajasi mamlakatning institutsional muhiti, moliyaviy tizimi, ta'lim sifati hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Ayollar tadbirkorligi nazariyasining shakllanishida C.G. Brush⁸, E.M. Fischer, A.R. Reuber, L.S. Dyke⁹, D.P. Moore va H.P. Welsch kabi olimlarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ular ayollar tadbirkorligini erkaklar tadbirkorligining oddiy ko'rinishi emas, balki o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida asoslab berganlar. Mazkur tadqiqotlarda ayollarning biznes yuritish uslubi, resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda biznesni rivojlantirish strategiyalari chuqur tahlil qilingan.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ham ayollar tadbirkorligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanmoqda. Xususan, Global Entrepreneurship Monitor (GEM)¹⁰ ma'lumotlariga ko'ra, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar soni oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning biznesni boshlash va kengaytirish imkoniyatlari erkaklarga nisbatan hamon pastligicha qolmoqda. Rivojlantirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar sifatida moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, biznes aloqalarini mustahkamlash va investitsion resurslardan foydalanishni yaxshilash ko'rsatiladi.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan *Women, Business and the Law*¹¹ hisobotlarida esa ayollar tadbirkorligining rivojlanishida huquqiy muhit va institutsional islohotlarning hal qiluvchi o'rni ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollarning mulkka egalik qilish, kredit olish, shartnomalar tuzish va iqtisodiy faoliyat yuritish huquqlari kengaygan mamlakatlarda ayollar biznesining o'sish sur'atlari sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.

BMTning **UN Women**¹² tashkiloti va **Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)**¹³ tadqiqotlari ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash faqat moliyaviy yordam bilan cheklanmasligi lozimligini qayd etadi. Ularning fikricha, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, mentorlik dasturlari, raqamli texnologiyalar va institutsional xizmatlarning uyg'unligi ayollar biznesining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi ayollar uchun transport, internet infratuzilmasi va bozorga kirish imkoniyatlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar ham qishloq ayollari tadbirkorligining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi¹⁴. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston tajribasi davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar va biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari ijobiy natijalar berayotganini, shu bilan birga, hududlar

8 Brush C.G. Research on women business owners: Past trends, a new perspective and future directions // *Entrepreneurship Theory and Practice*. – 1992. – Vol. 16, No. 4. – P. 5–30.

9 Fischer E.M., Reuber A.R., Dyke L.S. A theoretical overview and extension of research on sex, gender, and entrepreneurship // *Journal of Business Venturing*. – 1993. – Vol. 8, No. 2. – P. 151–168.

10 Global Entrepreneurship Monitor (GEM). 2023/24 Women's Entrepreneurship Report: Reshaping Economies and Communities. – London: GEM, 2024.

11 Jahon banki (World Bank). *Women, Business and the Law 2024*. – Washington, DC: World Bank, 2024.

12 BMT Ayollar tashkiloti (UN Women). *Women's Economic Empowerment Strategy*. – New York: UN Women, 2024.

13 Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). *Women's Entrepreneurship Development (WED) Programme*. – Geneva: ILO, 2024.

14 UN Women – Europe and Central Asia. *Research on Gender Characteristics of Women's Entrepreneurship in Kazakhstan*. – Almaty: UN Women, 2022; UNDP. *Women Accelerate Trade and Inclusive Economies in Central Asia*. – UNDP Eurasia, 2024.



o'rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy muhitni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat O'zbekiston qishloq hududlari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ayollar tadbirkorligining turli jihatlarini tadqiq etilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda gender tengligi, bandlik, oilaviy tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'zaro bog'liq institutlar va qo'llab-quvvatlash tizimi, hududiy differensial yondashuv hamda ekonometrik baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki institutsional, hududiy va raqamli rivojlanish omillari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Toshkent viloyatida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari asosida OLS regressiya modeli qo'llanilib, qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar statistik jihatdan baholanadi.

1-jadval.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha asosiy ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili¹⁵

Muallif (yil)	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy xulosa	Mazkur tadqiqot uchun ahamiyati
Brush (1992)	Ayollar tadbirkorligi nazariyasi	Ayollar tadbirkorligi mustaqil ilmiy yo'nalish	Nazariy asos
Fischer va boshq. (1993)	Gender va tadbirkorlik	Gender tafovutlari institutsional omillar bilan bog'liq	Gender yondashuvi
GEM (2024)	Global tadbirkorlik	Moliyalashtirish va biznes muhiti muhim	Xalqaro taqqoslash
World Bank (2024)	Huquqiy muhit	Qulay institutlar biznes rivojlanishini tezlashtiradi	Institutsional tahlil
UN Women (2024)	Gender siyosati	Mentorlik va ta'lim muhim omillar	Amaliy tavsiyalar
ILO (2023)	Bandlik va tadbirkorlik	Kasbiy tayyorgarlik biznes barqarorligini oshiradi	Amaliy tavsiyalar

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekistonning qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kompleks baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi xalqaro ilmiy amaliyotda keng qo'llaniladigan model asosida ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy tahlil, empirik kuzatuv va ekonometrik baholash usullarini o'zaro uyg'unlashtiradi. Ushbu yondashuv muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, natijalarni ishonchli baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar tashkil etdi. Birlamchi ma'lumotlar Toshkent viloyatining qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalaridan iborat bo'lib, unda jami 365 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar Toshkent viloyatining 11 ta tumanidan tanlab olinib, ularning tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, biznes yuritish tajribasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga munosabati o'rganildi.

Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank, Jahon banki (World Bank), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), UN Women, OECD¹⁶ hamda Global Entrepreneurship Monitor (GEM) hisobotlaridan foydalanildi. Ushbu manbalar mamlakat va xalqaro miqyosda ayollar tadbirkorligining rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida bir-birini to'ldiruvchi bir nechta ilmiy usullar qo'llanildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali ayollar tadbirkorligining nazariy asoslari va rivojlanish omillari o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Tavsifiy statistik tahlil respondentlarning ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini umumlashtirish va asosiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, hududlar kesimida farqlarni aniqlash maqsadida guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismida ekonometrik tahlil alohida ahamiyat kasb etdi. Ayollar tadbirkorligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares

15 Manba: Ilmiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

16 OECD. Bridging the Finance Gap for Women Entrepreneurs. – Paris: OECD Publishing, 2024.

— OLS) asosidagi regressiya modeli qo'llanildi. Hisob-kitoblar Stata 17.0 dasturida amalga oshirildi. Modelning statistik ishonchligi determinatsiya koeffitsienti ($R^2 = 0,676$), Fisher mezoni ($F = 4,756$) va ahamiyatlilik darajalari orqali baholandi. Natijalar modelning tadqiqot maqsadlari uchun yetarli darajada mos ekanligini hamda tanlangan omillarning ayollar tadbirkorligi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Ekonometrik modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida ayollar tadbirkorligi rivojlanish darajasi qabul qilindi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, hududiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hamda institutsional omillar kiritildi. Ushbu yondashuv har bir omilning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini alohida baholash imkonini berdi.

Empirik natijalarning ishonchligini oshirish maqsadida ekspert baholash usuli ham qo'llanildi. Bunda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari mutaxassislari, tijorat banklari vakillari va iqtisodiyot sohasidagi olimlarning fikrlari tahlil qilinib, so'rovnoma natijalari bilan solishtirildi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida hududiy xususiyatlarni inobatga olish maqsadida Toshkent viloyati tumanlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va tadbirkorlik salohiyatiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Mazkur hududiy tabaqalashtirish ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash choralarini har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

2-jadval.

Tadqiqot metodologiyasining umumiy tavsifi¹⁷

Tadqiqot elementi	Mazmuni
Tadqiqot hududi	Toshkent viloyati qishloq hududlari
Respondentlar soni	365 nafar ayol tadbirkor
Ma'lumotlar turi	Birlamchi va ikkilamchi
Statistik dastur	Stata 17.0
Asosiy usullar	Qiyosiy tahlil, tavsifiy statistika, OLS regressiya, ekspert baholash
Modelning ishonchligi	$R^2 = 0,676$; $F = 4,756$; $p < 0,001$
Asosiy maqsad	Ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi institutsional omillarni aniqlash

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada ayollar rahbarligidagi tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida rivojlanish darajasi bir xil emas. Ayniqsa, Toshkent viloyatining qishloq tumanlari o'rtasida tadbirkorlik muhiti, infratuzilma va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha sezilarli tafvutlar mavjud.

Tadqiqot davomida Toshkent viloyatining 11 ta tumanida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar o'rganildi. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi ko'p jihatdan hududning iqtisodiy salohiyati, transport infratuzilmasi, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati va raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan hududiy differensial yondashuv asosida tumanlar uch guruhga ajratildi. A-zona iqtisodiy jihatdan rivojlangan va bozor infratuzilmasi yaxshi shakllangan hududlarni, B-zona o'tish bosqichidagi hududlarni, V-zona esa iqtisodiy faolligi nisbatan past bo'lgan hududlarni qamrab oladi. Mazkur tasnif davlat qo'llab-quvvatlash choralarini hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib rejalashtirish imkonini beradi.

3-jadval.

Tadqiqot respondentlarining asosiy tavsifi¹⁸

Ko'rsatkich	Ulushi (%)
Oilaviy tadbirkorlik	41,6
Yakka tartibdagi tadbirkor	34,8
MChJ va boshqa shakllar	23,6
Kreditdan foydalangan	52,9

17 Manba: Muallif ishlanmasi.

18 Muallifning 365 nafar respondent ishtirokidagi so'rovnoma asosida tuzilgan.



Kredit olmagan	47,1
Raqamli platformalardan foydalanadi	44,3
Onlayn savdo qilmaydi	55,7

Ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash

Tadqiqotda ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida OLS regressiya modeli qo'llanildi. Model Stata 17 dasturida hisoblandi va uning statistik ko'rsatkichlari modelning ishonchli ekanligini tasdiqladi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,676$ bo'lib, bu bog'liq o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning 67,6 foizi modelga kiritilgan omillar bilan izohlanishini anglatadi. Fisher mezonining $F = 4,756$ qiymati va modelning umumiy ahamiyatlilik darajasi ($p < 0,001$) regressiya tenglamasining statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Regressiya natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda institutsional qo'llab-quvvatlash ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, infratuzilmani yanada rivojlantirish va hududiy imkoniyatlarni kengaytirish biznes faoliyatining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4-jadval.

OLS regressiya modelining umumiy natijalari¹⁹

Ko'rsatkich	Qiymati
R^2	0,676
F-statistika	4,756
p-qiymat	<0,001
Respondentlar soni	365

Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yagona yondashuv barcha hududlarda bir xil natija bermaydi. Masalan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda eksport salohiyatini oshirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash ustuvor bo'lsa, iqtisodiy faolligi nisbatan past hududlarda biznesni boshlash uchun boshlang'ich kapital, maslahat xizmatlari va infratuzilma bilan ta'minlash muhimroq hisoblanadi.

Shuningdek, respondentlarning muhim qismi biznesni rivojlantirishdagi asosiy to'siq sifatida garov ta'minotining yetishmasligi, kredit olishdagi murakkab tartiblar va zamonaviy marketing ko'nikmalarining yetarli emasligini qayd etdi. Bu holat davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash dasturlarini hududiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan E-B-M tasniflash modeli va Ayollar tadbirkorligi ekotizimi konsepsiyasi qishloq hududlarida ayollar biznesini rivojlantirishning yangi institutsional yondashuvi sifatida qaralishi mumkin. Mazkur yondashuv ayollarni rasmiy iqtisodiyotga kengroq jalb qilish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining manzilliligini oshirish hamda davlat resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar faqat moliyaviy resurslar bilan cheklanmaydi. Ekonometrik tahlil natijalari institutsional muhit, tadbirkorlik ko'nikmalari, raqamli infratuzilma va hududiy sharoitlar ayollar biznesining rivojlanishida asosiy omillar ekanligini tasdiqladi. Bu esa ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosatini kompleks yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xulosalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, Global Entrepreneurship Monitor (GEM)²⁰ hisobotlarida ayollar tadbirkorligi rivojlanishining asosiy omillari sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, ta'lim sifati va biznes ekotizimining rivojlanganligi qayd etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari ham aynan ushbu omillarning O'zbekiston qishloq hududlari uchun dolzarb ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, World Bank²¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollarning iqtisodiy faolligi huquqiy va institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Ushbu maqolada esa bu xulosa hududiy darajada ham tasdiqlandi. Toshkent viloyatining iqtisodiy va infratuzilmaviy imkoniyatlari yuqori tumanlarida ayollar tadbirkorligi nisbatan faol rivojlangan bo'lsa, boshqa hududlarda biznesni boshlash va kengaytirish imkoniyatlarini yanada yaxshilash zarurligi kuzatildi.

UN Women²² va ILO²³ hisobotlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda mentorlik dasturlari, biznes ta'limi

19 Manba: Muallifning ekonometrik hisob-kitoblari.

20 Global Entrepreneurship Monitor (GEM). 2023/24 Women's Entrepreneurship Report. – London: GEM, 2024.

21 Jahon banki (World Bank). Women, Business and the Law 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.

22 BMT Ayollar tashkiloti (UN Women). Women's Economic Empowerment Strategy. – New York: UN Women, 2024.

23 Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Women's Entrepreneurship Development (WED) Programme. – Geneva: ILO,

va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rov natijalari ham respondentlarning katta qismi biznesni rivojlantirish uchun aynan amaliy maslahat, marketing bo'yicha bilim va raqamli savodxonlikka ehtiyoj sezayotganini ko'rsatdi. Bu natijalar xalqaro tajriba bilan mos keladi.

Mazkur tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ayollar tadbirkorligi hududiy differensial yondashuv asosida baholandi. Amaldagi davlat dasturlarida hududlar uchun umumiy mexanizmlardan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari ushbu mexanizmlarni hududlarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Shu sababli muallif tomonidan taklif etilgan A-B-V zonalari modeli hamda ehtiyoji yuqori hududlarga ko'proq mablag' yo'naltirish tamoyili hududlarning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda resurslarni taqsimlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, maqolada qo'llanilgan E-B-M klassifikatsiya modeli amaldagi statistik yondashuvni takomillashtirish imkonini beradi. Amaliyotda ayollar tadbirkorligi ko'pincha faqat korxonaga egasining jinsi orqali baholanadi. Taklif etilgan uch mezonli model esa egalik, boshqaruv va mehnat tarkibini birgalikda hisobga oladi. Natijada norasmiy faoliyat yuritayotgan, biroq amalda biznesni ayollar boshqarayotgan subyektlarni ham aniqlash va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlariga jalb qilish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqotning yana bir ilmiy hissasi — ATIM va WEFP modellarining integratsiyalashgan holda ko'rib chiqilishidir. Ular moliyaviy xizmatlar, biznes maslahatlari, raqamli platformalar va institutsional qo'llab-quvvatlashni yagona tizimga birlashtiradi. Bu yondashuv xalqaro tajribadagi "entrepreneurship ecosystem" konsepsiyasiga mos keladi, biroq O'zbekiston qishloq hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga oladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha siyosatni takomillashtirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim. Aynan shunday yondashuv qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligining barqaror rivojlanishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekistonning qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash, balki hududlarning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim omil ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligining rivojlanishi institutsional muhit sifati bilan bevosita bog'liq. Moliyaviy xizmatlar, ta'lim tizimi, mahalliy boshqaruv organlari va raqamli infratuzilma o'rtasidagi uyg'unlik biznes faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, ekonometrik tahlil natijalari ayollar tadbirkorligi rivojlanishiga moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash eng katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Modelning statistik ko'rsatkichlari tanlangan omillarning ishonchliligini ko'rsatdi.

Uchinchidan, hududlarning iqtisodiy salohiyati bir xil emasligi sababli ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda differensial yondashuv zarur. Muallif tomonidan taklif etilgan A-B-V zonalari modeli resurslarni hududlarning ehtiyojiga mos ravishda taqsimlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, ishlab chiqilgan E-B-M klassifikatsiya modeli ayollar tadbirkorligini aniqlashning amaldagi yondashuvini takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur model norasmiy faoliyat yuritayotgan, biroq biznesni amalda ayollar boshqarayotgan subyektlarni ham qo'llab-quvvatlash tizimiga jalb qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, ayollar tadbirkorligi ekotizimini shakllantirishda ATIM va WEFP modellarini integratsiyalashgan holda joriy etish davlat xizmatlari, moliyaviy resurslar va biznes infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- qishloq hududlarida ayol tadbirkorlar uchun garovsiz kreditlash mexanizmlarini kengaytirish;
- hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, differensial qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish;
- ayollar tadbirkorligi bo'yicha mentorlik hamda biznesni tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish xizmatlarini kengaytirish;
- raqamli platformalar orqali davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- E-B-M klassifikatsiya modelini rasmiy statistik kuzatuv tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish;
- ATIM va WEFP platformalarini amaliyotga tatbiq etish orqali ayollar tadbirkorligi ekotizimini mustahkamlash.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonning qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish siyosatini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantiradi hamda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6831827>
4. Brush, C. G. Research on Women Business Owners: Past Trends, a New Perspective and Future Directions // *Entrepreneurship Theory and Practice*. – 1992. – Vol. 16, No. 4. – P. 5–30.
5. Fischer, E. M., Reuber, A. R., Dyke, L. S. A Theoretical Overview and Extension of Research on Sex, Gender, and Entrepreneurship // *Journal of Business Venturing*. – 1993. – Vol. 8, No. 2. – P. 151–168.
6. Global Entrepreneurship Monitor. *GEM 2023/2024 Women’s Entrepreneurship Report: Reshaping Economies and Communities*. – London: Global Entrepreneurship Research Association, 2024.
7. World Bank. *Women, Business and the Law 2024*. – Washington, DC: World Bank, 2024.
8. UN Women. *Women’s Economic Empowerment Strategy*. – New York: United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women, 2024.
9. International Labour Organization. *Women’s Entrepreneurship Development Programme*. – Geneva: International Labour Organization, 2024.
10. OECD. *Bridging the Finance Gap for Women Entrepreneurs: Insights from Academic and Policy Research*. – Paris: OECD Publishing, 2025.
11. UN Women Europe and Central Asia. *Research on Gender Characteristics of Women’s Entrepreneurship in Kazakhstan*. – Almaty: UN Women, 2022.
12. Akbarov, D. *Women Accelerate Trade and Inclusive Economies in Central Asia: The Key? Market Access, Information and Financing*. – UNDP Europe and Central Asia, 2025.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100